








Nogironligi bor yoshlarga mehnat qurollarini sotib olish uchun subsidiya ajratish




Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen kerakli mehnat qurollarini sotib olish uchun ajratiladigan subsidiya haqida bilib olasan.
	**Subsidiya –** bu sening xarajatlaring uchun davlat bir marta beradigan va qaytarib olmaydigan pul.
	Prezidentning 2021-yil 21-dekabrdagi qaroriga ko‘ra, har yili 500 ta nogironligi bor yoshlarga: ● o‘qish ● yashash ● transport ● asbob-uskunalar uchun subsidiya beriladi.
	**Asbob - uskunalar uchun subsidiya** – bu ishlashing uchun kerak bo‘lgan asbob-uskunalarni sotib olishga davlat tomonidan bir marta beriladigan va qaytarib olinmaydigan pul.




	Senga asbob-uskunalar subsidiyasi: • kasb o‘rgatadigan kursni tugatsang • kasb kursi bo‘yicha sertifikat olsang • o‘zingni band qilsang • tadbirkor bo‘lib davlat ro‘yxatiga kirsang beriladi.
	**Kasb o‘rgatadigan kurs** – bu sen biron sohani o‘quv markazi yoki kurslarda o‘rganishing.
	**Sertifikat** – bu sen kasb o‘rgatadigan kursni tugatganingni tasdiqlovchi hujjat.
	O‘zingni band qilishing – bu: • o‘zing ishlab pul topishing • ishlagan pulingdan davlatga soliq to‘lashing • ish tajribang bo‘lishi • imtiyozlardan foydalanish huquqing bo‘lishi
	Senga ishlashing uchun kerakli asbob-uskunalarni sotib olishga Bazaviy hisoblash miqdorining 50 (ellik) baravarigacha (o‘n yetti million so‘mdan) subsidiya ajratiladi.

	Hozirda bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari – 340 000 (uch yuz qirq ming) so‘m.
	Sen asbob - uskuna subsidiyasiga 2 xil usulda ariza berishing mumkin: ● davlat xizmatlari markazlaridan ● my.gov.uz davlat xizmatlari markazi internet manzilidan.
	**Davlat xizmatlari markazi** – bu hammaga va nogironligi bor insonlarga hujjat ishlarida yordam beradigan tashkilot.
	**Davlat xizmatlari markazlari**ga sen o‘zing borib, markaz xodimlari bilan birga asbob-uskunalar subsidiyasiga ariza berishing mumkin.
	my.gov.uz **davlat xizmatlari markazlarining internet manzili** orqali o‘zing ariza topshirishing mumkin.

	my.gov.uz orqali ariza berish uchun: 1. my.gov.uz internet manziliga kirib ro‘yxatdan o‘tasan 2. **Yoshlar** bo‘limini tanlaysan 3. **Nogironligi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun subsidiya** bo‘limini tanlaysan 4. ariza to‘ldirib, yuborish tugmasini bosasan.
	Sen 16 yoshga to‘lmagan bo‘lsang asbob-uskunalar subsidiyasini olish uchun arizani ota-onang yoki senga qarovchi inson topshiradi.
	Ota-ona yoki nogironligi bor bolaga qarovchi inson ariza berishda: ● o‘zining pasport - JSHSHIR - 14 ta raqamni ● bolaning qonuniy vakili ekanligini bildiruvchi hujjatini qo‘shib topshiradi.
	Sen ariza berishda kasb-hunar kurslarida o‘qiganliging haqidagi sertifikatni (pdf yoki jpg ko‘rinishda) yuklashing kerak.

	Nogironligi bor yoshlarning asbob-uskuna subsidiyasi uchun berilgan arizalarini **Yoshlar ishlari agentligi 15 kunda** ko‘rib chiqadi.
	• Arizani rad etish • hujjatlar to‘g‘ri bo‘lsa arizani ko‘rib chiqish haqida sening ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqamingga SMS-xabar keladi.
	Arizalar **rad etilishi** mumkin bo‘lgan holatlar: • 500 ta yoshlarga subsidiya berib bo‘linganda • sening avvalgi arizang qabul qilinganda • arizada ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki kam bo‘lganda • sen ruhiy kasallar yoki giyohvand insonlar ro‘yxatida bo‘lganingda • senda nogironlik yo‘q bo‘lganda • sen kasb-hunar kurslarini tugatib lekin sertifikat olmaganingda • sen tadbirkor bo‘lsang yoki o‘zingni band qilib davlat ro‘yxatidan o‘tganingga 180 kun, ya’ni 6 oydan ko‘p bo‘lganda.

	Agar sening arizangda xato borligi sabab qabul qilinmasa, arizadagi xatolarni to‘g‘rilab qaytadan ariza topshirishing mumkin.
	Sen subsidiya olish uchun talablarga to‘g‘ri kelsang, agentlik 2 kunda sening ma’lumotlaringni tekshirish uchun mahalla yoshlar yetakchisiga yuboradi.
	Mahalla yoshlar yetakchisi **5 kunda** sening ma’lumotlaring to‘g‘riligini tekshiradi.
	Senga subsidiya ajratish yoki ajratmaslik haqida tuman (shahar) agentligiga internet orqali xabar yuboradi.
	Tuman (shahar) agentligi 3 kunda senga subsidiyani berish yoki rad etishni tasdiqlaydi.

	Subsidiya berilmasa yoki subsidiya puli agentlik hisobiga o‘tkazib berilsa, bu haqida senga a SMS-xabar keladi.
	Tuman (shahar) agentligi pulni 5 kunda arizada ko‘rsatilgan asbob-uskunalarni sotib olish uchun savdo tashkiloti hisobiga o‘tkazadi.
	Sen asbob-uskunalarni savdo tashkilotidan mahalladagi yoshlar yetakchisi bilan birga topshirish-qabul qilish hujjatini qabul qilib olasan.
	Mahalla yoshlar yetakchisi subsidiyani rad etish haqida tavsiyanoma berishi mumkin.
	Rad etish haqidagi tavsifnoma berilsa senga 2 kunda SMS xabar keladi.

	Agar mahalladagi yoshlar yetakchisi subsidiyani sababsiz rad etsa, sen Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limiga bu haqida aytishing kerak.
	Nogironligi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskunalar subsidiyasi haqida boshqa ma’lumotlarni: • O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyundagi 341-son qarorining 1-ilovasidan bilib olishing mumkin.